

**FARMONOV ERKIN TOLIPOVICH  
BERDIMURATOV PARAXAT TADJIMURATOVICH  
BERDIMURODOV USMON SUYUNOVICH  
RAZIKOV NURIDDIN BAXTIYOROVICH**



**QISHLOQ XO'JALIK TEXNIKALARIDAN FOYDALANISH VA TEXNIK  
SERVIS  
fani bo'yicha kurs loyihasini bajarish uchun**

**U S L U B I Y QO'LL A N M A**



**TOShKENT-2022**



**„Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash  
muxandislari instituti“ Milliy tadqiqot universiteti**

---

**FARMONOV ERKIN TOLIPOVICH  
BEDRIMURATOV PARAXAT TADJIMURATOVICH  
BERDIMURODOV USMON SUYUNOVICH  
RAZIKOV NURIDDIN BAXTIYOROVICH**

**"Qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash" fakulteti**

**Mashilalardan foydalanish va  
ta`mirlash kafedrasи**

**QISHLOQ XO'JALIK TEXNIKALARIDAN FOYDALANISH VA TEXNIK  
SERVIS  
fani bo'yicha kurs loyihasini bajarish uchun**

**U S L U B I Y QO'LL A N M A**

**TOSHKENT-2022**

Uslubiy qo'llanma Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish fakulteti o'quv-uslubiy kengashi (2022 yil 6-sonli yig'ilish bayoni)da ko'rib chiqildi va Universitet o'quv-uslubiy kengashiga tavsiya etildi.

Mazkur uslubiy qo'llanma Universitet ilmiy - uslubiy Kengashining

“26” “05” 2022 yilda bo'lib o'tgan 6 - sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash yo'nalishi uchun “Qishloq xo'jalik texnikalaridan foydalanish va texnik servis” fani bo'yicha kurs loyihasini bajarish uchun uslubiy qo'llanma 5430100 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

**Tuzuvchilar:**

E.T.Farmonov- TIQXMMI, MTU, prof

P.T.Berdimuratov - TIQXMMI, MTU, dotsenti

U.S.Berdimurodov – TIQXMMI, MTU, PhD

N.B.Razikov - TIQXMMI, MTU, assistenti

**Tuzuvchilar:**

**N.Umirov** – Traktorlar va avtomobillar kafedrasi t.f.n., dotsenti

**Taqrizchilar:**

**Xalilov** ToshDAU QXICHM va XFX kafedrasi dotsenti. t.f.n.

---

**„Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti“ Milliy tadqiqot universiteti**      **Toshkent , 2022 y.**

## MUNDARIJA

<b>So'z boshi.....</b>	<b>4</b>
<b>1. Loyihaning mazmuni .....</b>	<b>5</b>
<b>2. Mashina traktor agregatlari va yonilg'i sarfiga bo'lgan talablarni aniqlash.....</b>	<b>6</b>
<b>2.1. Xo'jalik joylashgan mintaqaga xos texnologik xaritani tanlash... ....</b>	<b>6</b>
<b>2.2. Traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalarini tanlash .....</b>	<b>6</b>
<b>2.3. Mashina-traktor agregatlari va yonilg'i sarfiga bo'lgan talablarni aniqlash.....</b>	<b>7</b>
<b>3. Traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalaridan samarali foydalanishni tashkil etish.....</b>	<b>10</b>
<b>4. Fermer xo'jaligining mashina saroyini texnologik loyixalash.. . ....</b>	<b>14</b>
<b>5. Neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash .....</b>	<b>15</b>
<b>6. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.....</b>	<b>16</b>
<b>7. Kurs loyixasini shakllantirish va himoya qilish.....</b>	<b>19</b>
<b>Foydalilanigan adabiyotlar .....</b>	<b>20</b>
<b>Ilovalar .....</b>	<b>21</b>

## **SO'Z BOSHI**

Talabalar tomonidan kurs loyihasini bajarishdan maqsad paxta va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari ekiladigan mintaqalarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kompleks mexanizatsiyalashtirish, dala ishlarini mexanizatsiyalashtirishning texnologiyasi, fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi texnikalariga va yoqilg'i-moylash materiallariga bo'lgan talabini aniqlash, yetishmaydigan mashina-traktor agregatlarining miqdori, ulardan foydalanish muddatlari hamda yonilg'i-moylash materiallariga bo'lgan talabni oyma-oy taqsimotini tuzib chiqish, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining texnikalaridan shartnoma va ijara asosida foydalanishni tashkil etish, texnik servisni rejorashtirish uslublarini va injenerlik masalalarini mustaqil yechish, texnikalardan foydalanish ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish ko'nikmalarini egallahdan iborat.

Kurs loyihasini bajarish uchun talaba dehqonchilik asoslarini, zamonaviy traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalarini tuzilishini, texnik iqtisodiy ko'rsatgichlarini, agregatlarni tanlashni, tuzishni, ishlatishni va adabiyotlardan hamda zamonaviy texnik vositalardan erkin foydalana olishni bilishlari shart.

Kurs loyihasida texnikalardan foydalanishning umumiylasalari, ishlab chiqarishning alohida sohasi yoki mashinalardan texnik foydalanishning elementlari yoritilishi mumkin.

Agar talaba joylardagi mavjud fermerlar uyushmasi yoki fermer xo'jaligi sharoiti misolida texnikalardan foydalanishni tashkil etish vazifasi bo'yicha kurs loyihasini bajarsa, u holda loyiha natijalariga ko'ra fermerlar uyushmasi yoki fermer xo'jaligida texnikalardan foydalanishni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin.

## **1. Loyihaning mazmuni**

**Kurs loyihasiga topshiriq** har bir talaba uchun alohida beriladi.

Kurs loyihasi fermerlar uyushmasi yoki fermer xo‘jaliklarining tuproq-iqlim sharoiti, iqtisodiy va tashkiliy yo‘nalishlarini hisobga olgan holda tuzilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va hosilni o‘rib yig‘ib olish texnologik jarayonlari asosida ishlab chiqiladi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini etishtirish texnologik jarayonlarini ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy texnologik xaritalardan foydalaniladi [2].

**Kurs loyihasi quyidagi masalalarni yoritishni** o‘z ichiga oladi:

1. Mexanizatsiyalashtirilgan ishlarni bajarish uchun birlamchi ma’lumotlar;
2. Mashina-traktor agregatlari va yoqilg‘i sarfiga bo‘lgan talablarni aniqlash;
3. Traktorlar va qishloq xo‘jaligi mashinalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;
4. Fermer xo‘jaliklariga tegishli traktorlarga texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini rejalashtirish;

5. MTAlardan foydalanishdagi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash.

**Loyihaning grafik qismi** quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Mexanizatsiyalashtirilgan ishlarni bajarish uchun talab etiladigan texnikalar bilan ta’minlash rejasи;
2. Fermer xo‘jaligiga tegishli traktorlarga texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini rejalashtirish;
3. Mashina saroyida texnikalarga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni saqlash maydonchalarini joylashtirish sxemasi.

**Tushintirish yozuvi quyidagilardan iborat:**

Mexanizatsiyalashtirilgan ishlarni bajarishda mashina-traktor agregatlaridan foydalanishni tashkil qilish bo‘yicha kurs loyihasini zar varag‘i 1-ilovada va uni bajarish bo‘yicha topshiriq 2-ilovada ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtiriladi.

**Kirish.** Loyihaning kirish qismida quyidagilarni, ya’ni agrosanoat majmuining rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlarida qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bo‘yicha respublikada ishlab chiqarilayotgan va chetdan keltirilayotgan zamonaviy yuqori unumli texnikalardan foydalanish istiqbollarini ko‘rsatib o‘tish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklaridagi texnikalardan samarali foydalanishni tashkil qilish zarurligini asoslash.

**Mexanizatsiyalashtirilgan ishlarni bajarish uchun birlamchi ma’lumotlar.**

Mashina-traktor agregatlaridan (MTA) samarali foydalanishni tashkil qilish uchun asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarini etishtirish bo‘yicha istiqbolli texnologik xaritalar, me’yorlar, fermer xo‘jaliklarining rivojlanish istiqbollari va mashinalarning ish sharoitlaridan kelib chiqqan holda quyidagi ma’lumotlar:

- xo‘jalikning dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqish rejasi, ekin maydoni va qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi; xo‘jalikdagi mavjud traktorlar va qishloq xo‘jaligi mashinalarining rusumi va soni;

- qishloq xo‘jaligi ekinlarini etishtirish uchun ishlab chiqilgan texnologiyalar va qabul qilingan almashlab ekishlar, tasdiqlangan mashinalar tizimi, tabiiy va tashkiliy omillar, texnikalarning holati, MTAlarining ish sharoitlari, ishlarni bajarish kalendar muddatlari va ish kunlari soni;

- xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni, soatlik, smenali, kunlik ish unumlari, yoqilg‘i sarfi va hakozolar zarur bo‘ladi.

## **2. Mashina traktor agregatlari va yoqilg‘i sarfiga bo‘lgan talablarni aniqlash**

### **2.1. Xo‘jalik joylashgan mintaqaga xos texnologik xaritani tanlash**

Qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot etishtirishda sarf-xarajatlarni muvofiqlashtirish, mashina-traktor agregatlardan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida har bir ekin turi uchun namunaviy texnologik xaritalar yaratilgan [2].

Aynilsa, paxta etishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik xaritalar 3 ta mintaqaga bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, ularda barcha texnologik jarayonlarning sarf-xarajatlari mamlakatimiz mintaqalari bo‘yicha turli tuproq va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Kurs loyihasini bajarishda topshiriqda berilgan xo‘jalikning tuproq-iqlim sharoitini va uning iqtisodiy-tashkiliy yo‘nalishlarini e’tiborga olgan holda tuzilgan texnologiq xaritalari asos qilib olinadi yoki xo‘jalik joylashgan mintaqaga xos bo‘lgan namunaviy texnologik xaritalar olinib, ularga kerakli o‘zgartirishlar kiritiladi.

### **2.2. Traktorlar va qishloq xo‘jaligi mashinalarini tanlash**

Xo‘jalikning ishlab chiqarish rejalarini bajarish uchun foydalaniladigan traktorlar va qishloq xo‘jaligi mashinalarining turlari va rusumlari tanlanadi.

Bunda xo‘jalikning alohida joylashish xususiyatlari, ya’ni er relefi, tuproq-iqlim sharoiti, dalaning yuzasi va uzunligi, bajariladigan ishlarning turi hamda uning xususiyatlariga alohida ahamiyat beriladi.

Ko‘p energiya talab etiladigan (er haydash, chizellash, chuqur yumshatish va boshqalar) hamda yuzasi va uzunligi katta dalalardagi ishlarni bajarishda hozirgi zamон yuqori quvvatli umumiyl ishlarni bajaradigan AXION-850, MX-250, ARION-640S, MAGNUM, AXOS-340 rusumli traktorlar keng qamrovli mashinalar bilan, xuddi shu ishlar, lekin kichik va o‘rtacha maydonlarda T-4A, VT-150, TS-6070, AXSOS-320S, TTZ LS PLUS 100 traktorlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ekishdan oldin erlarni tayyorlashda (tirmalash, disklash, chizellash, molalash, er tekislash va boshqalar) asosan T-4A, VT-100, VT-150, rusumli zanjirli traktorlardan, ekinlar qator oralariga ishlov berishda (ekish, kultivatsiya qilish,

begona o‘tlar va zararkunandalarga qarshi kurashish, g‘o‘zani defoliatsiya qilish, g‘o‘zapoyani yig‘ish va hokazolar) ekinlar qator orasi 60-70 sm bo‘lganda TTZ-60.11 va 90 sm bo‘lganda esa TTZ LS-100 HC, TTZ-80.11, MTZ-80X rusumli chopiq traktorlaridan hamda etishtirilgan ekinlarning hosilini tashish ishlarida TTZ-60.10, TTZ-80.10, TTZ-LS 100HC, MTZ-80,82, TTZ-100.10 rusumli transport traktorlaridan foydalanish yuqori samara beradi.

Tanlangan traktor va qishloq xo‘jaligi mashinasi quyidagi talablarga to‘liq javob berishi, ya’ni:

- traktorlar quvvati va tortish xossalari bo‘yicha mazkur mintaqasi yoki fermer xo‘jaligi (fermerlar uyushmasi) sharoitlaridagi ishlarning to‘liq bajarilishini;
- MTA larining mazkur sharoitlarda yuqori ish unumi va eng kam foydalanish harajatlar bilan ishlatilishini;
- barcha qishloq xo‘jalik mavsumlari davrida mumkin qadar MTA laridan to‘liq foydalanish va rejalashtirilgan texnologik jarayonlarning kompleks mexanizatsiyalash ishlarini yuqori saviyada bajarilishini ta’milashi kerak. SHu bilan birga, birinchi navbatda respublikamizda ishlab chiqarilayotgan texnikalarni tanlanishiga hamda ularni namunaviy texnologik xaritalarga va “Mashinalar tizimi”ga kiritilganligiga alohida ahamiyat berilishi talab etiladi.

### **2.3. Mashina-traktor agregatlari va yonilg‘i sarfiga bo‘lgan talablarni aniqlash**

Mashina traktor agregatlari va yonilg‘i sarfiga bo‘lgan talablarni hisoblash jadvali (2.1-jadval) tavsiya qilinadigan “Asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot etishitirish bo‘yicha namunaviy texnologik kartalar” asosida tuziladi [2].

Bunda topshiriqda berilgan asosiy va almashlab ekiladigan ekin turlarini parvarishlash va o‘rib-yig‘ib olishda qo‘llaniladigan umumiy ishlarni bajaradigan, qator orasiga ishlov beradigan, yuk tashish va ortish ishlarini bajaradigan traktorlar hamda o‘rim-yig‘im kombaynlari va o‘ziyurar texnikalarga mos keladigan faqat mexanizatsiyalashtirilgan ishlar alohida ajratib ko‘rsatiladi.

2.1-jadvaldagi 1; 2; 3; 4; 6; 7; 8; 9; 10; 11 va 15-ustunlarda berilishi kerak bo‘lgan ko‘rsatgichlar topshiriqda berilgan ekinlar turi bo‘yicha tuzilgan texnologik xaritalarga asosan to‘ldiriladi.

Hisobiy jadvalning boshqa ko‘rsatkichlari quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi.

**5-ustun.** MTA bilan ishlov beriladigan maydon:

$$U_u = \beta \frac{F\alpha}{100}, \text{ ga} \quad (2.1)$$

bu erda: F- mazkur ekin etishtiriladigan maydon, ga (topshiriq bo‘yicha);

$\alpha$  - maydonning ish bajariladigan qismini ulushi, % (4-ustun);

$\beta$  – ishning me’yor ko‘rsatgichlari, t/ga, m<sup>3</sup>/ga (2-ustun).

**12-ustun.** Bir agregat bilan ishlov berilgandagi ishchi kunlar soni:

$$D_u = U_u / W_k, \quad \text{kun} \quad (2.2)$$

bu erda:  $W_k$  – agregatning bir kunlik bajargan ish hajmi, ga (11-ustun).

Bunda natija butun son qilib olinadi.

**13-ustun.** Talab etilgan MTAlari soni:

$$N_{mma} = \frac{D_u}{D_{m.u}}, \quad \text{dona} \quad (2.3)$$

bu erda:  $D_{m.u}$  - tavsiya etilgan ishchi kunlari soni, kun (7-ustun).

Bunda natija butun son qilib olinadi.

**14-ustun.** MTAdagi qishloq xo‘jaligi mashina (QXM)lari soni:

$$N_{kxm} = N_{mma} n_{kxm}, \quad \text{dona} \quad (2.4)$$

bu erda  $n_{kxm}$  – bir traktor bilan aggregatlanadigan qishloq xo‘jaligi mashinalarining soni, dona (10-ustun).

**16 ustun.** Ishlov beriladigan maydonga yonilg‘i sarfi:

$$Q_u = g U_u, \quad \text{litr} \quad (2.5)$$

bu erda:  $g$ - bir gektarga yonilg‘i sarfi, litr/ga (15-ustun).

Olingan ma’lumotlar 2.1-jadvalga kiritiladi. Ushbu jadvalni namunaviy to‘ldirilishi 3- ilovada keltirilgan.

### 3. Traktorlar va qishloq xo‘jaligi mashinalaridan samarali foydalanishni tashkil etish

Traktorlarga bo‘lgan talabni aniqlash uchun tuzilgan 3.1-jadvalning ustunlari quyidagicha to‘ldiriladi, ya’ni 2.1-jadvalga mos holda har bir bajariladigan ishning tartib raqami (1-ustunga), qishloq xo‘jaligi mashinasining rusumi (2-ustunga), ishning bajarish muddati (3-ustunga) qo‘yib chiqiladi. Ishning bajarish muddatiga (3-ustun) qarab kalendar kunlar soni aniqlanadi va hisoblar 4-ustunga yozib chiqiladi.

**5-ustun.** Har bir ishni MTAlari tomonidan bajarishdagi ishchi kunlar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$D_{mma} = \frac{D_u}{N_{mma}}, \quad \text{kun} \quad (3.1)$$

Bu ishchi kunlari belgilangan ishlarni qancha kunda bajara olish imkoniyatini ko‘rsatadi.

So‘ngra 2.1-jadvalning 13 va 16-ustunlariga asosan har bir ishni bajaradigan MTAlarining soni va ishning bajarish uchun ketgan yoqilg‘i sarfi 3.1-jadvaldagি

ishning bajarish muddatiga (3-ustun) mos holda oyma-oy ustunlarga qo'yib chiqiladi.

6- va 17-

Bajariladigan ishning kalendar muddati (3-ustun) bir oydan boshlanib boshqa bir necha oyda tugatilishi belgilangan bo'lsa, birinchi navbatda ushbu ishni MTAlar tomonidan bajarish kunlar soniga (4-ustun) va xo'jalikning sharoiti hamda ishning agrotexnik talablarga asosan bajarish mumkinligiga qarab u yoki bu oyga surilishi mumkin.

Agarda yuqoridagi usulni qo'llash imkoniyati bo'lmasa, u holda MTAlar soni har oyga bir xil qo'yiladi, yonilg'i sarfi esa kalendar kunlarga mos holda har bir oyga bo'lib yoziladi.

Har bir traktor rusumi bo'yicha MTAlar soni va yonilg'i sarfi oyma-oy (6- va 17-ustunlar) qo'yib chiqiladi va qaysi oyda ishlatiladigan MTAlar soni ko'p bo'lsa, **ushbu miqdor har bir traktor rusumiga bo'lgan talab miqdorini belgilaydi**.

Har bir traktor rusumiga bo'lgan talabga ko'ra fermer xo'jaligidagi mavjud traktorlar sonini hisobga olgan holda shartnomaga asosida va ijara olinadigan traktorlarga bo'linadi va ularga xo'jalik raqamlari beriladi (№1, №2 va hakozo).

So'ngra har bir xo'jalik raqamli traktorning yil davomida bajaradigan ishlari turli rangdagi chiziqlar bilan belgilanadi.

Ushbu jadvalni namunaviy to'ldirilishi 4- ilovada keltirilgan.

Xuddi shunday har bir qishloq xo'jaligi mashinasiga bo'lgan talab ham yuqoridagi ko'rsatilgan usulda aniqlanadi.

Agar bir necha turdag'i mexanizatsiyalashtirilgan ishlari bir rusumdag'i qishloq xo'jaligi mashinasi bilan bir paytda (oy davomida) amalga oshirilsa yoki bir necha bor qayta bajarilsa, masalan, g'o'zani 1,2 va hakozo kultivatsiya qilish (KXU-4B), zararkunandalarga qarshi kurash va defoliatsiya qilish (OVX-600), o't o'rish (KIR-1.5), paxtani tashish (2PTS-4-793A) va boshqalar, ularni bajarishda qatnashadigan MTAlaridagi qishloq xo'jaligi mashinasining har oyda ishlagan miqdorlari solishtirilib, ularning eng katta miqdori (soni) olinadi.

Bunda fermer xo'jaligidagi mavjud traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalarini imkoniyati boricha ko'proq ishlarni bajarilishida qatnashishiga alohida ahamiyat berilishi talab etiladi. CHunki mexanizatsiyalashtirilgan ishlarning bajarishni bu usulda tashkil etish, ushbu ishlarni belgilangan agrotexnik muddatlarda amalga oshirilishini ta'minlaydi hamda fermer xo'jaligiga qarashli barcha traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Mexanizatsiyalashtirilgan ishlarni bajarish uchun talab etiladigan traktorlar, qishloq xo'jaligi mashinalari (QXM), shartnomaga asosida ishlatiladigan va ijara olinadigan MTAlar soni hamda ularni ishlatish muddatlari, ishni bajarish kunlari va yangisini sotib olish bo'yicha tavsiyalar 3.2-jadvalga kiritiladi.

Ushbu jadvalni namunaviy to'ldirilishi 5- ilovada keltirilgan.

#### **4. Fermer xo‘jaligining mashina saroyini texnologik loyihalash**

Dehqonchilikda qo‘llaniladigan qishloq xo‘jaligi texnikalarining ishga yaroqlilagini ta’minlash uchun fermer xo‘jaligida mashina saroyi tashkil etiladi.

Mashina saroyi quyidagi talablar asosida ishlab chiqiladi [11].

Mashina saroyini texnologik loyihalash uchun:

- fermer xo‘jaligidagi mavjud dexqonchilik va texnik xizmat ko‘rsatish xamda ta’mirlash texnologik jixozlarining tarkibi va soni, ularning asosiy o‘lchamlari, texnikalarni joylashtirishda devor va ular o‘rtasidagi o‘zaro oraliq masofalar o‘lchamlari, xarakatlanish yo‘nalishlari va uzunligi xamda kengligi xisoblaridan mashina saroyining umumiy o‘lchamlari aniqlanadi;

- traktor va murakkab qishloq xo‘jaligi mashinalarining nosoz agregatlarini almashtirish va texnik xizmat ko‘rsatish uchun alovida va bitta post oddiy qishloq xo‘jalik mashinalari ta’mirlash maqsadida tashkil etiladi. Postning o‘lchamlari eng katta o‘lchamli traktor yoki mavjud bo‘lsa don kombayni va xarakterli oddiy qishloq xo‘jaligi mashinasi o‘lchamidan hamda qo‘llaniladigan texnologik jixozlarning o‘lchamlaridan kelib chiqib aniqlanadi;

- ehtiyyot qismlar va boshqa ehtiyojlar, mashina saroyi ishchilarining dam olish va yuvinish, ma’muriyat raxbari va xisobchi uchun xonalar tashkil etiladi. Ularning o‘lchamlari ehtiyojdan kelib chiqib hisoblanadi.

Mashina saroylari quyidagi turlarga bo‘linadi (7- ilova):

**A turi** – ustaxona tashkil qilish samarasiz bo‘lgan fermer xo‘jaliklarida texnikalarni yuvish maydonchasi va ularni uzoq muddatga saqlashga qo‘yish mo‘ljallangan yopiq va ochiq bo‘limlari bo‘ladi.

**B turi** – texnikalarni yuvish maydonchasi, ta’mirlash ustaxonasi, texnikalarni uzoq muddatga saqlovga qo‘yish mo‘ljallangan yopiq va ochiq bo‘limlari bo‘ladi.

**V turi** - texnikalarni yuvish maydonchasi, ta’mirlash ustaxonasi, texnikalarni uzoq muddatga saqlovga qo‘yish mo‘ljallangan yopiq va ochiq bo‘limlari hamda ko‘chma ustaxonasi bo‘ladi.

**G turi** - texnikalarni yuvish maydonchasi, boshqa fermer xo‘jaliklarining buyurtmasi asosida texnik servis xizmati ko‘rsatish va ta’mirlashga olib kelingan texnikalarni saqlash maydonchasi, ta’mirlash ustaxonasi, texnikalarni uzoq muddatga saqlashga qo‘yish mo‘ljallangan yopiq va ochiq bo‘limlari hamda ko‘chma ustaxonasi bo‘ladi.

Fermer xo‘jaligining dehqonchilik er maydonlarining miqdoriga qarab (7- ilova) mashina saroyining turi qabul qilinadi hamda unda ko‘rsatilgan ustaxonalar va saqlash maydonchalarining o‘lchamlari asosida mashina saroyining binolari va texnikalarni saqlash maydonchalarini joylashish sxemasi chiziladi.

Mashinalar saroyining namunaviy ko‘rinishi 8- ilovada keltirilgan.

## 5. Neft mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash

Fermer xo‘jaligining oyma-oy va yillik neft mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari 3.1-jadvalga asosan aniqlanadi.

YOnilg‘i va moylash materiallarini saqlash idishlarining sig‘imi quyidagicha topiladi, ya’ni:

$$V_{\text{дэ}} = \frac{14Q_{\kappa}^{\max}}{\gamma}, \text{ m}^3 \quad (5.1)$$

bunda  $\gamma$  - yonilg‘ining hajmiy solishtirma koeffitsienti, litr/m<sup>3</sup>. dizel yonilg‘isi uchun  $\gamma = 1220$  litr/m<sup>3</sup>;

$Q_{\kappa}^{\max}$  - yonilg‘ining eng ko‘p kunlik sarfi, litr/kun (3.1-jadval);

14 - saqlanishi zarur bo‘lgan kunlar soni, kun.

Motor moyi, yog‘lash materiallari moylari va ishga tushirish yonilg‘isi uchun talab etiladigan idishlar ham shunday usulda dizel yoqilg‘isiga nisbatan foiz hisobida 10-ilovaga asosan aniqlanadi.

$$Vi = V_{\text{дэ}} K_i / 100 \quad (5.2)$$

Bu erda  $K_i$  – moy va yog‘lash materiallarini dizel yoqilg‘isiga nisbatan talab etiladigan me’yorlari, % (10 - ilova).

Hisoblangan idish sig‘imlari ( $Vi$ ) bo‘yicha sisternalar, bochkalar va boshqa zarur idishlar jamlanadi hamda ularning soni va hajmlari ko‘rsatiladi.

## 6. Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar

Mexanizatsiyalashtirilgan ishlarni bajarish uchun jami talab etiladigan mashina-traktor agregatlaridan foydalanish darajasi:

- umumiy ishlarni bajaradigan traktorlar uchun

$$\alpha_{y\mu} = \frac{\sum (M_u D_u)_{y\mu}}{(M_6 D_6)_{y\mu}} * 100 \quad (6.1)$$

bunda  $(M_u D_u)_{y\mu}$  - umumiy ishlarni bajaradigan MTAлари ishlagan kunlar (traktorlar soniga ko‘paytirilgan ishchi kunlar, 3.1-jadval);

$(M_6 D_6)_{y\mu}$  - MTAлarning xo‘jalikda bo‘lish kunlari (talab etiladigan traktorlar soniga ko‘paytirilgan kalender kunlar, 3.1-jadval).

- ekinlar qator orasiga ishlov beradigan traktorlar uchun

$$\alpha_{ko} = \frac{\sum (M_u D_u)_{ko}}{(M_6 D_6)_{ko}} * 100 \quad (6.2)$$

bunda  $(M_u D_u)_{ko}$  - ekinlar qator orasiga ishlov beradigan MTAлари ishlagan

kunlar (traktorlar soniga ko‘paytirilgan ishchi kunlar, 3.1-jadval);  
 $(M_6 D_6)_{\text{ko}}$  - MTAlarning xo‘jalikda bo‘lish kunlari (qator orasiga ishlov beradigan traktorlar soniga ko‘paytirilgan kalendar kunlar, 3.1 - jadval).

### - yuk tashish va ortish ishlarini bajaradigan traktorlar uchun

$$\alpha_{\text{iom}} = \frac{\sum (M_u D_u)_{\text{iom}}}{(M_6 D_6)_{\text{iom}}} * 100 \quad (6.3)$$

bunda  $(M_u D_u)_{\text{iom}}$  - yuk tashish va ortish MTAlari ishlagan kunlar (transport traktorlari soniga ko‘paytirilgan ishchi kunlar, 3.1-jadval);  
 $(M_6 D_6)_{\text{iom}}$  - MTAlarning xo‘jalikda bo‘lish kunlari (transport traktorlari soniga ko‘paytirilgan kalendar kunlar, 3.1-jadval).

### MTAlaridan yil davomida foydalanish darajasi

$$\beta = \frac{\sum (M_u D_u)_{y_M} + \sum (M_u D_u)_{\text{ko}} + \sum (M_u D_u)_{\text{iom}}}{(M_{y_M} + M_{\text{ko}} + M_{\text{iom}}) D_k} * 100 \quad (6.4)$$

Bu erda: Mum – umumiy ishlarni bajaradigan traktorlarga bo‘lgan talab, dona;  
Mko- qator orasiga ishlov beradigan traktorlarga bo‘lgan talab, dona;  
Myum- yuk tashish va ortish traktorlariga bo‘lgan talab, dona  
(jadval); Dk - yillik kalendar kunlar, Dk = 365 kun.

### Iqtisodiy ko‘rsatkichlar:

Mavjud texnikalarning bir gektarga to‘g‘ri keladigan narxi, so‘m/ga

$$C_{\text{mex}} = \frac{\sum (C_{mp} + C_{kxm})}{F_u} \quad (6.5)$$

bunda  $C_{mp}, C_{kxm}$  – mavjud traktor va qishloq xo‘jaligi mashinalarining umumiy narxi, so‘m (3.2-jadval);  $F_u$  - shudgorlanadigan maydon, ga (topshiriq bo‘yicha)  
YOnilg‘i-moy materiallarning 1 hektar maydonga to‘g‘ri keladigan narxi, so‘m/ga

$$C_{\text{eMM}} = \frac{\sum (c_e + c_m a / 100 + c_m v / 100) C_o}{F_u} \quad (6.6)$$

bunda  $Syo, Sm, Sm$  - yonilg‘i, moy va yog‘lash materillari narxi, so‘m/litr;  
 $a, v$  - moy va yog‘lash materiallarini dizel yonilg‘isiga nisbatan miqdori, %;  $a = 1,7-3,3\%$ ,  $v = 0,02-0,06\%$ .

$C_o$  – dizel yonilg‘isining yillik hajmi, litr (3.1-jadval).

Mexanizatsiyalashtirilgan ishlarga mehnat sarfi, kishi-kuni/ga

$$H_{ea} = \frac{\sum H_i}{F_{uu}} \quad (6.7)$$

bunda  $\sum H_i$  - umumiy sarf, kishi-kuni (9-ilova);

$F_i$  - shudgorlanadigan maydon, ga.

Xuddi shunday yuqoridagi ko'rsatgichlar fermer xo'jaligidagi mavjud mashinatraktori agregatlari uchun ham alohida hisoblanadi.

Olingan ma'lumotlar 7.1-jadvalga kiritiladi hamda ular taxlil qilinib, kerakli xulosa va tavsiyalar beriladi.

### 6.1-jadval

#### Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar

№	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Qiymati		
			Jami ishlatalidigan MTAlar bilan	SH.j .fermer xo'jaligi MTAлari bilan	Jamiga nisbatan, %
1.	MTAlaridan foydalanish darajasi:				
	- umumiy ishlarni bajarishda	%			
	- qator orasiga ishlov berishda	%			
	- yuk tashish va ortish ishlarida	%			
2.	MTAlaridan yil davomida foydalanish darajasi	%			
3.	1 ga to'g'ri keladigan texnikalarning narxi	so'm/ga			
4.	1 ga to'g'ri keladigan neft mahsulotlari narxi	so'm/ga			
5.	1 ga to'g'ri keladigan mehnat sarfi	kishi-kuni/ga			

## **7. Kurs loyixasini shakllantirish va himoya qilish**

Loyihani shakllantirishda talaba o‘ziga biriktirilgan rahbar bilan doimo maslahatlashadi.

Kurs loyihasini shakllantirish bo‘yicha umumiyo ko‘rsatmalar quyidagilardan iborat:

Ish standart varag‘idagi (A4) 25-40 bet yozuv qog‘ozlarida bajariladi. YOzuv matni qismi shunday joylashtiriladiki unda chap tomondan 2,0 sm tikish uchun joy bo‘lishi, o‘ng tomondan esa 2,0 sm joy qoldiriladi.

Ishda harflarning belgilanishi bitta tizimda bo‘lishi va ixtiyoriy ravishda so‘zlarni qisqartirilishi bo‘lmasligi kerak.

Har xil qiymatlarning keltirilgan o‘lchov birliklari GOST talablariga muvofiq belgilanishi kerak.

Ishning boshida zar varog‘idan keyin kurs loyihasiga topshiriq, uning tashkil qiluvchilari va annotatsiya (ishning qisqacha mazmuni) joylashtiriladi. Ishning qisqacha mazmuni varoq (A4) ning 0,50-0,75 bet hajmida bo‘ladi.

Barcha jadvallar, sxemalar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa illyustratsiya materiallari nomlanishi va tartib raqamiga ega bo‘lishi kerak. Grafiklar va jadvallar A1 o‘lchamli millimetrovka varog‘ida bajariladi.

Ishning zar varog‘ida quyidagilar keltiriladi: vazirlik, oliv o‘quv yurti, fakultet va kafedraning nomlanishi, mavzuning nomi; bajaruvchi va rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning ilmiy darajasi, unvoni, lavozimi. Zar varog‘ning pastki qismida loyihaning bajarilgan joyi va yili ko‘rsatiladi. Zar varog‘ining shakli 1- ilovada berilgan.

YOzuv matnida ishda foydalanilgan ilova va adabiyotlarga ko‘rsatma berilishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati ishning oxirida joylashtiriladi.

Kurs loyihasi bajarilib bo‘lishiga qarab himoyadan bir hafta oldin rahbarga topshiriladi. Ishga rahbarning taqrizi va uni himoyaga qo‘yishi haqida imzosi olingandan keyin u tugallangan hisoblanadi. Himoyaga ruxsat etilgan ishlar kafedra tomonidan tasdiqlangan hay’at oldida ma’ruza qilinadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot etishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik kartalar. 2016 -2020 y.y.-T.: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, 1- 2 qismlar. T. 2016y.
2. SH.U.Yo‘ldoshev, E.T. Farmonov Bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun uslubiy qo‘llanma. –T.: ToshDAU. 2005. -27b.
3. E.T.Farmonov va boshqlar. Mashina – traktor parkidan foydalanish fanidan ma’ruzalar to‘plami. – T.: TIQXMII, 2002.-95b.
4. SH.U.Yo‘ldoshev va boshqalar “Qishloq xo‘jaligi texnikalariga texnik servis xizmati ko‘rsatish, ta’mirlash va saqlash bo‘yicha tavsiyalar” . “O‘zdavtexnazorat” bosh inspeksiyasi. T. 2011.
5. S. Aliqulov, E.T.Farmonov. “Qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqarish jarayonlarining amalga oshirish xaritasini tuzish” uchun uslubiy qo‘llanma. T.: ToshDAU - 2012.

## **ILOVALAR**

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI

# Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti MTU

## Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash Fakulteti

## Mashinalardan foydalanish va ta’mirlash kafedrasи

# **“QISHLOQ XO’JALIK TEXNIKALARIDAN FOYDALANISH VA TEXNIK SERVIS ” FANIDAN**

## KURS LOYIHASI

Bajardi: \_\_\_\_\_

## (Talabaning F.I.O.I)

Rahbar: \_\_\_\_\_

(F.I.O.I)

## Himoyaga ruxsat etildi “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2022 y

(imzo)

Toshkent – 2022

**Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari  
instituti“ Milliy tadqiqot universiteti**

**Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash  
Fakulteti**

**Mashinalardan foydalanish va ta’mirlash  
kafedrasи**

**«ТАСДИҚЛАЙМАН»  
Кафедра мудири,  
проф \_\_\_\_\_ А.Игамбердиев  
“\_\_\_\_\_” 2022 йил**

**“QISHLOQ XO‘JALIK TEXNIKALARIDAN FOYDALANISH VA TEXNIK SERVIS”  
фанидан курс лойиҳасини бажариш учун**

**Т О П Ш И Р И К**

**Талаба \_\_\_\_\_ “ҚХМ” йўналиши \_\_\_\_\_ курс \_\_\_\_\_ гурух**

**1. Ишнинг мавзуси:** \_\_\_\_\_ вилояти, \_\_\_\_\_ тумани,  
фермер хўжалиги (фермерлар уюшмаси)даги  
механизациялаштирилган ишларни бажаришда машина-трактор агрегатларидан  
самарали фойдаланишни ташкил этиш” (ёки топшириқ № \_\_\_\_)

**2. Мавзу бўйича бирламчи маълумотлар**

Экинлар тури: \_\_\_\_\_; дехқончилик тури \_\_\_\_\_; минтақа\_\_\_\_; қатор ораси  
\_\_\_\_ см; ер майдони \_\_\_\_\_ га; хосилдорлиги \_\_\_\_\_ ц/га, ялпи хосил \_\_\_\_\_ тонна;  
барариладиган иш тури \_\_\_\_\_; мавжуд тракторлар русумлари ва сони  
\_\_\_\_\_ ва ҚХМ русумлари ва сони \_\_\_\_\_

**3. Адабиётлар рўйхати:** Игамбердиев А. Алиқулов С. Механизациялаштирилган  
ишларни бажаришда машина-трактор агрегатларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш.  
Тошкент, 2020. 44 б.

**4. Ишнинг мақсади ва ҳал қилинадиган масалалар:**

1. Механизациялаштирилган ишларни бажариш учун бирламчи маълумотлар;
2. Машина-трактор агрегатлари ва ёқилғи сарфига бўлган талабларни аниқлаш;
3. Тракторлар ва қишлоқ хўжалиги машиналаридан самарали фойдаланишни ташкил этиш;
4. Хўжалиқдаги техникаларга техник хизмат кўрсатиш ишларини режалаштириш;
5. Машина саройини технологик лойиҳалаш; 6. Нефть маҳсулотларига бўлган эфтиёжни  
аниқлаш; 7. МТАлардан фойдаланишдаги техник-иктисодий кўрсаткичларини аниқлаш.

**5. График (слайдлар, чизмалар, жадваллар) қисми материаллари рўйхати:**

1- Машина-трактор агрегатлари ва ёқилғи сарфига бўлган талаблар жадвали;

2- Ёқилғини ойма-ой тақдимоти жадвали;

3- Техникалар билан таъмирланганлик режаси жадвали;

4. Тракторларга ТХКни режалаштириш жадвали

5- Машиналар саройини бош режаси.

6. Инновацион технология ва техникаларни танлаш (слайдлар)

**Лойиҳа раҳбари \_\_\_\_\_**

**Топшириқни бажаришга олдим \_\_\_\_\_**

**«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ йил**

**Mashina traktor aggregatlari va yoqilg'i sarfiga  
bo'lgan talablarni hisoblash**

Ekin turlari:              paxta              g'alla              boshqa ekinlar  
 Er maydoni, ga  
 Hosildorligi, s/ga  
 YAlpi hosil, tonna

t/r	Ishlarning nomi	Ishlov beriladigan maydon,ga			Ishni bajarish muddati		Mashina-traktor aggregatining tarkibi va ko'rsatgichlari								Yoqilg'i sarfi, litr			
		O'l-chov bir-ligi	%	Ish hajmi	Kalendar muddati	Tavsiy a etilgan ishchi kunlar soni	Tarkibi			Ko'rsatgichlari			Talab etiladi, dona					
		Traktor rusumi	Mashina rusumi	Mashina soni	kunlik ish unumi	ishchi kunlar	MTA soni	QXM soni	Bir gek-tar-ga	Jami ish hajmi ga								
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16			
I		Umumiy ishlarni bajaradigan MTA lari																
1.1																		
1.2																		
...																		
Jami																		
II		Qator orasiga ishlov beradigan MTA lari																
2.1																		
2.2																		
...																		
Jami																		
III		Yuk tashish va ortish ishlarini bajaradigan MTA lari																
3.1																		
3.2																		
...																		
Jami																		
IV		O'rim-yig'im kombaynlari va o'ziyurar texnikalar																
4.1.																		
Jami																		
Jami yoqilg'i sarfi, litr																		

**Texnikalar bilan bajariladigan ishlar va ularga talab etiladigan  
yonilg'i sarfining oyma-oy taqsimoti**

t/r	Qishloq xo'jalik mashinalarining muddati	Ishning bajarish muddati	Kalendar kun- lari soni	Ish kun-lari soni	Ishning bajarish muddatiga qarab MTAlar soni (M,dona ) va yonilhii sarfi (YOS, litr) taqsimoti																MTAlar ishini tash- kil etish usullari*					
					Yil oylari																					
					I		II		III		IV		V		VI		VII		VIII		IX		X		XI	
			M	YOS	M	YOS	M	YOS	M	YOS	M	YOS	M	YOS	M	YOS	M	YOS	M	YOS	M	YOS	B	S	H	I
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20							
1.1																										
1.2																										
1.3																										
1.4																										
Jami																										
II																										
2.1																										
2.2																										
2.3																										
2.4																										
Jami																										
III																										
3.1																										
3.2																										
3.3																										
3.4																										
Jami																										
IV																										
4.1																										
4.2																										
...																										
Jami																										
Jami yonilg'i sarfi, litr																										
